



2025-YILGI BAHORGI ATTESTATSIYA JARAYONLARIDA
SINOVLARNING “PEDAGOGIK MAHORAT VA KASB
STANDARTI” QISMIDAN TUSHGAN TEST SAVOLLARI

1. Bolalar bilan muloqot qilish va ularning qadr qimmatini tan olish o'qituvchining qaysi kompetensiya standartlariga kiradi?

Javob: Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish

1) Induksiya	A) alohida hodisa va faktlardan umumiy qoidaga kelinadi.
2) Deduksiya	B) bu umumiy qoidalardan alohida holatlar uchun xulosa chiqarish usuli.
3) Analogiya	C) bunda predmetlar ba'zi belgilarining o'xshashligi bo'yicha bu predmetlar boshqa belgilari bo'yicha ham o'xshash, degan taxminiy xulosa chiqariladi. "Xususiyydan xususiyyga boradigan", bir konkret faktdan boshqa konkret faktlarga boradigan xulosadir

Javob; 1-a; 2-b; 3-c

2. O'qituvchi yangi mavzuni o'tdi shundan so'ng bilimlarni mustahkamlash maqsadida bolalar bilan savol-javob o'tkazdi. Bunday holatda o'qituvchi qaysi an'anaviy ta'lim metodidan foydalandi?

Javob; suhbat

3. Dars mavzusig mos keladigan namoyish va tarqatma materiallaridan foydalanish o'qituvchining qaysi kompetensiya standartlariga kiradi?

Javob: Ta'lim samaradorligini taminlash

4. Ingliz tili fani o'qituvchilari maktabda ish faoliyatlarida bir birlarini tushunib, yordam berib faoliyat olib borishlariga barcha o'qituvchilar jamoasi havas qiladilar. Ushbu holatda o'qituvchilarda refleksiyaning qanday turi namoyon bo'lmoqda?

Javob: Kooperativ refleksiya

5. Pedagogik nizolarning turlarini aniqlang:

1.Tez yakun topuvchi 2.Uzoq muddat davom etuvchi 3.Kuchsiz, sust kechadigan 4.Kuchli, tez kechadigan 5.Kuchsiz, tez kechadigan

Javob: 1,2,3,4

6. O'z ustida ko'p ishlaydigan boshlang'ich sinf o'qituvchisi birxillikdan zerikib, har bir dars uchun texnologik xaritasini tuzib chiqdi va darslarini xilma-xil o'tishini taminladi. Ushbu vaziyatda pedagogik texnologiyaning qanday darajasi namoyon bo'lmoqda?

Javob: Xususiyy metodik daraja (mezo)

7.

1. Kimyo fani o'qituvchisi darsda o'quvchilarni kundalik baholab boradi	a)diagnostik
2. Bialogiya o'qituvchisi o'quv yili boshida o'quvchilar bilimini o'rganish uchun ularni baholab oladi	b)formativ
3. Fizika fani o'qituvchisi o'quvchilarni simestr tugaganida baholadi	c)summativ

Yuqorida foydalanilgan baholash turlarini moslashtiring

1-b;2-a; 3-c

8. Ta'lim amaliyotida "pedagogik texnologiya" tushunchasi uch darajasining ketma-ketligini belgilang:

1. Umumpedagogik (makro) daraja.
2. Lokal daraja (mikro).
3. Xususiyy-metodik (mezo) daraja.

Javob: 1,3,2

9. Maktabda o'quvchilar o'rtasida nizoli vaziyat yuz berdi. O'qituvchi bu jarayonga barham berish uchun har ikki tomonni eshitdi va adolatli xulosa chiqardi. Bunday holat takrorlanmisligi uchun bolalar bilan o'zaro suhbatlar olib bordi. Bunday holatda o'qituvchi nizoni hal qilishning qaysi usulidan foydalandi?

Javob: Arbitraj

10. Ota-onalar majlisida ikki ona o'rtasida bolalar sababli nizo kelib chiqdi. Ular qo'pol so'zlarni ishlata boshladilar. O'qituvchi esa ularga bir-birini eshitishlarini, muloyim ohangda so'zlashishlarini talab qildi. Bunda o'qituvchi pedagogik nizoni hal qilishning qaysi usulidan foydalandi?

Javob: ishtirokchilarning xatti harakatlarining noto'g'riligini tushuntirish

11. O'qituvchi suv bug'ga aylanib havoga kotariladi va yana yomg'ir va qor ko'rinishida suvga aylanib yerga tushadi dedi va buni doskada chizib korsatdi bunda o'qituvchi qaysi metoddan foydalandi?

Javob: Tushuntirish

12. O'qituvchi darsda yangi mavzuni tushuntirib berdi va mavzu yanada tushunarli bo'lishi uchun mavzuga oid rasmlarni doskaga ilib quydi. Bunday holatda o'qituvchi qaysi an'anaviy ta'lim metodidan foydalandi?

Javob: Tasvir

13. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ota-onalar va o'qituvchilar suhbatda so'z boyligining kengligi, fikr yuritayotganda mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega ekanligi, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olishini namoyon qildi. Suhbat jarayonida gaplarning ketma-ket bir biriga to'g'ri kelishi va mantiqiy izchilligi hammani hayron qoldirdi. Bunda pedagog nutq xususiyatlaridan qay birini mohirona qo'llagan hisoblanadi?

Javob: Nutqning Mantiqiyligi

14. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalarini ishlab chiqish o'qituvchi kasbiy kompetentligining qaysi sohasiga kiradi?

Javob: O'quv jarayonini rejalashtirish

15. Muayyan o'quvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashish o'qituvchi kasbiy kompetentligining qaysi sohasiga kiradi?

Javob: O'ZLASHTIRISHNI BAHOLASH VA QAYTA ALOQANI TAQDIM ETISH

16. Geografiya fani o'qituvchisi dars mavzusini tushuntirishda yerning xaritasi va uning 3D formatidagi rasmdan foydalandi. Bunday holatda o'qituvchi qaysi metoddan foydalangan?

Javob: Tasvir

17. O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorladi va yangi mavzuni tushuntirdi so'ngra o'quvchilarni bilish o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida qisqa qisqa savollar beradi yozma ish oldi bunda o'qituvchi blum taksonomiyasining qaysi usulidan foydalandi?

Javob: Qo'llash

18. Blum taksonomiyasi mezonlarining ketma-ketligini toping.

Javob: Bilish, Tushunish, Qo'llash, Tahlil, Sintez, Baholash;

19. Nizoni hal qilishning qanday pedagogik usullari bor?

Javoblar ichidan tanlab olinadi

1. suhbat; 2. iltimos; 3. ishontirish; 4. nizoga kirishuvchilarga qo'yilgan talablar yoki ishtirokchilarning xatti

20. Bilimdon pedagogga xos sifatlarni aniqlang:

Javoblar ichidan shular tanlab olinadi:

1) ijtimoiy sub'ektlar bilan o'zaro aloqada, madaniy muloqotda bo'lish;

2) mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta'lim mazmuniga tayangan holda qayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida ulardan samarali foydalana bilish;

3) o'quv axborotlarini talabalarga etkazib bera olish

21. Refleksiya so'zining ma'nosi nima?

Javob : lot. "reflexio" – ortga qaytish, aks etish

22. Pedagogik taktga to'g'ri ta'rifberilgan qatorni toping

Javob; Pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondoshish malakalariga egaligi

23. . Yig'ilishda bir o'qituvchi pedagogik mahorati, yuqori ekanligi haqida gapirdi. Yosh mutaxassis esa o'z fanini chuqur bilishi, ammo pedagogik mahorati yetishmasligini aytib, u nimalardan iborat bo'lishini so'radi. Quyida "Pedagogik mahorat" tushunchasi ta'rifini qamrab olgan javoblarni belgilang.

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak

ko'rsatkichi

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi

4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi

Javob; 1,2 , 3, 4

24. O'qituvchi yangi darsni o'tishdan oldin o'quvchilarning bilimlarini quiz test orqali sinab ko'rdi. Bunday holatda o'qituvchi baholashning qaysi turidan foydalangan?

Javob: Diagnostik

25. O'qituvchi o'z fikrlarini o'quvchilarga **aniq va ta'sirchan yetkazib bera olishi uchun** unda qanday sifatlar bo'lishi kerak?

Javob; O'qituvchi so'z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati

26. Yuqori sinflarga ilk marotaba darsga kirgan o'qituvchi dastlab o'quvchilarning qiziqishlari haqida so'radi. O'qituvchi nima maqsadda bu ishni amalga oshirdi?

Javob: O'quvchilar darsda faol qatnashishini motivatsiyalashda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanish uchun

27. Moslashtiring;

1) Bilim	A) ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;
2) Ko'nikma	B) egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.
3) Malaka	C) avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi

Javob; 1-a;2-b;3-c

28. Moslashtiring.

1) Pedagogik jarayon	A) bu tarbiyaviy va o'quv faoliyatini bir butun holda tashkil etuvchi, o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi (tarbiyalanuvchi) o'rtasida maqsadli, rejalashtirilgan va o'zaro ta'sirga asoslangan harakatlar tizimidir
2) Maqsad	B) o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi
	C) o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.

Javob; 1-a; 2-c

29. Moslashtiring.

1. Masofaviy ta'lim	A) O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini distansion o'rganish, ularning bilimlarini sinab ko'rish va o'qituvchilar bilan aloqa qilish uchun Internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan ta'lim shakli
2. Noan'anaviy ta'lim	B) O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga o'quv va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi usullarni ishlab chiqish bo'yicha tajribaga asoslanadi
	C) Ta'lim nazariyasi o'quv faoliyatining kattalar sub'yekti tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib beradigan bo'limi

Javob; 1-a, 2-b

30. Tarbiyaning qaysi turiniolib borish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalaydi, ularning ijodiyqobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevisish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantiradi?

Javob: Estetik tarbiya

31. Tarbiyaning qaysi turi yo'lga qo'yish asosida – o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyatlardan boxabar etadi, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish bilan tafakkuri shakllantiriladi, dunyoqarashi rivojlantiriladi

Javob: Aqliy tarbiya

32. O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorladi va yangi mavzuni tushuntirdi so'ngra o'quvchilarni bilish o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida qisqa qisqa savollar beradi yozma ish oldi bunda o'qituvchi blum taksanomiyasining qaysi usulidan foydalandi?

Javob: qo'llash

33. O'qituvchi darslarini fanlararo kompetensiyalar predmetining **korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda** o'tadi bunday holatda kasbiy kompetentlikning qaysi sohasini amalga oshirgan hisoblanadi?

Javob: O'quv jarayonini rejalashtirish

34. O'qituvchi yangi mavzularni tushuntirib bo'lgach **bolalarning bilimlarini TEST QUIZ yordamida tekshirib ko'rid**. Bunday holatda o'qituvchi kasbiy kompetentlik qaysi mehnat vazifasini bajargan hisoblanadi?

Javob; Ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish

35. Tarbiya jarayonining qonuniyatlarini aniqlang

1. Tarbiyaning niq maqsadga yo'naltirilganligi
2. Tarbiya jarayonining ko'p qirraliligi
3. Uzoq muddat davom etishi
4. Tarbiya jarayonining uzluksizligi

Javob; 1,2,3 ,4

36. Didaktik o'yin metodiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping;

Javob: o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv faoliyati turi. O'yin o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirib, hodisalar va jarayonlarni modellashtirish orqali bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi

37. 4K modelining tartibini toping

1. Kommunikativlik 2. Koolobrasiya 3. Kreativ fikrlash 4. Kritik (tanqidiy) fikrlash

Javob; 2, 1, 3, 4

38. Darsga tayyorgarlik qaysi Bosqichda o'qituvchi dars o'tkaziladigan sharoitlarni chuqur tahlil qiladi. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari, bilim darajasi, o'quv material xususiyatlari, motivatsiya, faoliyat va xulq-atvori, hamda darsning o'quv jarayonidagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, darsdagi nazorat, mustahkamlash, tuzatish, tizimlashtirish jarayonlari ham hisobga olinadi.

Javob: Tashxislash

39. Darsga tayyorgarlikning qaysi bosqichda darsning turli variantlari ko'rib chiqiladi. Qanday shaklda va uslubda o'tkazilsa samarali bo'lishi mumkinligi oldindan taxmin qilinadi. So'ngra qabul qilingan mezonlarga mos keladigan eng maqbul variant tanlanadi.

Javob: Bashoratlash

40. Darsga tayyorgarlikning bosqichda o'qituvchi darsning strukturasi va asosiy vazifalarini rejalashtiradi. Ya'ni darsda qanday metodlar ishlatiladi, qanday savollar beriladi, qanday faoliyatlar tashkil etiladi?

Javob; loyihalash

